

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi Raisi**  
**o‘rinbosari S.Eshmatovning 2022-yil 2-choragi uchun faoliyat**  
**samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishishini baholashning**  
**asosiy mezonlari**

*(hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va soliq qarzini qisqartirish masalalari)*

Ehtiyojmand oilalarga ko‘rsatilayotgan ko‘makni monitoring qilish va doimiy daromad manbaini yaratish yo‘nalishida **2022-yil 2-choragida** 1100 ta doimiy daromad manbai yaratildi. Bu belgilangan rejaga nisbatan 117,4%ni tashkil etadi.

Bundan tashqari, **2022-yil 2-choragida** soliq qarzini o‘tgan oyga nisbatan 10 foiz qisqartirish choralari ko‘rish yo‘nalishida belgilangan reja 131,2% ga bajarildi. (1700,0 mlrd so‘m).

**2022-yil 2-choragida** “Temir daftar”ga kiritilgan oilalarni ro‘yxatdan chiqarish choralari ko‘rish bo‘yicha ishlarni bajarish darajasi 130,8 %ni tashkil etdi. Ya’ni 1200 ga yaqin oila “Temir daftar”dan chiqarildi.

Yashirin ish o‘rinlarini legallashtirish hisobiga daromad solig‘i to‘lovchilari sonini oshirish bo‘yicha reja 112%ga bajarilib 125 ming nafar soliq to‘lovchi faoliyati rasmiy sektorga o‘tkazildi.

«Ijro.gov.uz» ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali topshiriq va vazifalar ijrosining ta‘minlanishi esa 100%ga bajarildi.